

## SHASHMAQOM CHOLG‘U (MUSHKILOT) BO‘LIMI. IJROCHILIK AN‘ANALARI.

Tasnif va Tarje kuylari. Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası  
12-1vokal-20guruh talabasi

**Sadullayev Asilbek Salohiddin o‘g‘li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shashmaqom cholg‘u (Mushkilot) bo‘limi. Ijrochilik an‘analari Tasnif va Tarje kuylari haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Olti maqom tizimi, Tasnif, Tarje, Mushkilot bo‘limi


Olti maqom tizimidagi har bir maqom ikki yirik bo‘lim – cholg‘u va aytim (ashula) yo‘llaridan tarkib topishi aytilgan edi. Maqomlarning cholg‘u kuylar bo‘limi Buxoro an‘anasiga ko‘ra «Mushkilot» deb yuritiladi. Mazkur atama “qiyinchiliklar” ma‘nosida kelib, jumladan, maqomlardagi bosh kuy-mavzuini murakkabligi turlicha

bo‘lgan doyra usullari sinovidan o‘tishini va shu asnoda alohida qism va turkum miqyosida rivoj topishini ham anglatadi. «Mushkilot» bo‘limi beshta tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. Tasnif - tasnif etilgan, ijod etildan, mukammal asar.
2. Tarje - qaytariq, takrorlash, takrorlanuvchi.
3. Gardun - falak gardishi, qismat.
4. Muxammas - beshlik, beshlangan.
5. Saqil - vazmin, og‘ir.

Shuni aytish kerakki, garchand maqom cholg‘u kuylarining nomlari serjihat ma‘nolar kasb etsa-da, ammo ularning deyarli barchasi maqomlar «matnida», eng avvalo, doyra usullarini anglatadi. Binobarin, «Gardun», «Muxammas» yoki «Saqil» deyilganda birinchi navbatda ma‘lum doira usullari nazarda tutiladi. Maqomlarning «Mushkilot» cholg‘u bo‘limlari «Tasnif» nomli kuylar bilan boshlanadi. Bu atama «Olti maqom» ning har biriga qo‘shilib, «Tasnifi Buzruk», «Tasnifi Rost», «Tasnifi Navo», «Tasnifi Dugoh», «Tasnifi Segoh» va «Tasnifi Iroq» kabi ataladi. Maqomlarning ma‘nolar tizimi har bir maqomda o‘zgacha tus kasb etarkan, u dastlab maqomning Tasnif qismi boshlang‘ich kuy tuzilmasida ilk bor ifoda etiladi. Odatda, ushbu kuy mavzui kichik hajmda, ammo nisbiy tugal shaklda bayon etiladi. Zero maqom mavzulari timsolida umuman “musiqiy mavzu” tushunchasining beqiyos namunalari jonlanadiki, bunda buyuk ishq dardiga muhtalo qalblarning ruhiy holatlari go‘yo nag‘malarga muhr etilgan. Voqean, bu toifa musiqa mavzulari maqomdon sozanda (ashula yo‘llari esa hofizlarning) malakali ijrolari jarayonida o‘zining ruhiy (ma‘naviy) ta‘sir ko‘lamini namoyon eta boshlaydi. Chunki bu maqsadga erishish yo‘lida mohiyatan ishq zavqidan kelib chiquvchi turli ijroviy usullar (nola, qochirim, kashish va b.)ni samarali qo‘llay bilish talab etiladi. Ayni chog‘da, bu usullar semantikasi ishqiy-dardchil va turfa go‘zal tuyg‘ular ifodasi bilan bog‘liq ekanligini “jonli tinglov idroki” ila to‘la-to‘kis anglab yetish mumkin. Demak, maqomlarning mavzu bayoni bilan har bir maqom asarining ma‘nolar silsilasi, ta‘bir joiz bo‘lsa, ruhiy holati dastlabki darajada his etiladi, hamda

mavzuning rivoji va yakuni bilan asarning g‘oyaviy mazmuni ham uzil-kesil idroklanadi. Tasniflarda, odatda, 2/4 o‘lchov-ritmida bo‘lgan doyra usuli qo‘llaniladi. Ustozlar an‘anasida bu usul «bak, bak, bum, bum, bak, ist, bum, ist» deb ifoda etiladi. Nota yozuvida esa quyidagicha aks etadi.



Ushbu ko‘rinishdagi ritmik tuzilma Tasnif doyra usulining to‘liq ko‘rinishi bo‘lib, Tasnifi Rost, Tasnifi Dugoh, Tasnifi Segoh va Tasnifi Iroqda turlicha qisqartirilgan (ixchamlashtirilgan) shakllari qo‘llaniladi. Asar yaratilishi jarayonida Tasniflarning kuy mavzui maqom bosqichlariga tayangan holda o‘zining o‘rta va yuqori avj pardalariga intiladi, rivoj topgani sari uning ichki, botiniy jihatlari yuzaga chiqa boshlaydi. Mavzuning dastlabki holatidan to avji tomon rivoj yo‘lini «kichik doiradan kata doiraga» tarzida belgilash mumkin. Chunki bu yo‘l davomida mavzu to‘lqinsimon aylanma harakatlar ila unib-o‘sadi, hajmi tobora kengayib, salobati ortadi. Ayni vaqtda, uning mazmunidagi teranlik ruhiyati, mushohadaviylik holati zo‘rayib boradi. Maqom cholg‘u kuylarini ijro etishning ikki asosiy ko‘rinishi – yakkanavoz (yakka sozda) va ansambl (dasta) shakllari yuzaga kelgan. Tanbur torli-chertma sozi yetakchi cholg‘u sifatida kasbiy musiqachilar orasida keng qo‘llaniladi. Doyra esa zarb-usullarini sadolantirishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, maqom cholg‘u kuylarini g‘ijjak, dutor, nay, rubob, qo‘shnay kabi cholg‘ularda ham yakka holda ijro etish mumkin. Ansambl ijrochiligi tarkibida esa tanbur va doira qatoriga yana dutor, nay, qo‘shnay, g‘ijjak yoki sato (yoki qo‘biz), chang, qonun, ud, rubob kabi cholg‘ular qo‘shilishi mumkin. Buxoro musiqa amaliyotida tanbur, nay va doyra sozlaridan iborat cholg‘u ansambli muqim tus olgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An’anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o‘rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..
4. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339
5. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 88-91.
6. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.
7. Ramazonova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
8. Ramazonova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.
9. [ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАУКЕ ОБ ОСНОВАХ ТЕХНИКИ ПЕНИЯ.](#) Угиллой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова. 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том1Номер 6 Страницы 94-96
10. [ВНЕДРЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ВСОЗНАНИИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.](#) Угиллой Холмуродовна Рамазанова, Малика Курбановна Нематова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том 1 Номер 6 Страницы 97-99
11. Behruz BoltayevHamidovich INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM. *Academia*

*Science Repository*, 4(04), 1063–1066. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/90>

12. Behruz Boltayev Hamidovich. (2023). AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF "IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION. *Academia Science Repository*, 4(04), 102–104. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/414>

13. Boltayev B. H. The content and methodology of the process of establishing the voice of students in singing //МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 179-188.

14. Boltayev B. H. Buxoroshashmaqomidoyrausullari ijrolaritalqini //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-74.

15. Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.

16. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 191-194.

17. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.

18. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.

19. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – С. 26-28.

20. Ortiqov, E. . (2023). *Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatini Tutgan O'Rni. International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835>

21. [Взгляды восточных мыслителей на узбекскую народную музыку](#). УХ Рамазанова - Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2023

22. [O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA SHASHMAQOMNING O'RNI VA ANAMIYATI](#)

O Farangiz - TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY ..., 2022

23. [Важность использования инновационных технологий в науке об основах техники пения](#). Угиллой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science 1 694-96

24. [Внедрение и применение инновационных технологий в восприятии студентов в образовательном процессе](#). УХ Рамазанова, МК Нематова - International conference on multidisciplinary science, 2023

25. [Преподавание ответвлений шашмакома на уроках традиционного пения как педагогическая проблема](#). УХ Рамазанова, МД Эсанова - International conference on multidisciplinary science, 2023

26. Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Уктам Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklor-na-urokah-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

27. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi // IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 6. – С. 139-145.

28. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) // Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.

29. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) // Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.

30. БОЛТАЕВ Б. Х. ПРОБЛЕМЫ НАУКИ // ПРОБЛЕМЫ НАУКИ Учредители: Олимп. – №. 4. – С. 98-100.

31. Hamitova S. B., Gulzira N. AN'ANAVIY XONANDALIKNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – С. 114-117.

32. Qo'chqorova U. D., Hamitova S. B. MAQOM SAN'ATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI ORNI // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – С. 105-109.

33. Hamitova S. B. AN'ANAVIY XONANDALIK VA UNING RIVOJLANISH TARIXI // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – С. 110-113.